

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.M.Bozorova	
Sayyid Sharif Jurjoniyning ontologik va gnoseologik qarashlari.....	115
L.S.Sultonova	
Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni.....	119
U.K.Kurbanova	
Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili	124
M.H.Mo'minova	
Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni	128
K.J.Ochilova	
Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili	132
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi.....	136
R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova	
Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim	141
P.X.Qaxorov	
Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi	147
U.M.Paxriddinov	
Globallashuv jarayonlarining O'zbekistondaga mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili	152
Z.B.G'ulomov	
Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari.....	158
A.A.Tojiddinov	
Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari	164
G.A.Qamariddinova	
"Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili	172
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili.....	175
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism).....	180
Z.I.Narziyev	
Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba	185
M.M.Mamasaliyev	
Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqtatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....	189

SIYOSAT

T.A.Azizov	
Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari	193
S.U.Yuldashev	
Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionallashtirish	197
O'.N.Ahmedova	
Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'nnaviy tarbiya strategiyasi	201
X.R.Ikramov	
Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati	205
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	210
G.B.Umarova, A.Nurullaeva	
Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi	214
S.S.Yakubov	
Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi	218



UO'K: 316.72:323.1(4)

KANADA: MILLIY BIRLIKKA ERISHISH TAJRIBASI**КАНАДА: ОПЫТ ДОСТИЖЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ЕДИНСТВА****CANADA: THE EXPERIENCE OF ACHIEVING NATIONAL UNITY****Yakubov Sobirjon Salimovich** 

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Kanadada o'tgan asrning 70-yillarida millatlararo munosabatlarni tartibga solish maqsadida multikulturalizm siyosati amalga tatbiq etila boshladi. Ushbu siyosiy modelning maqomi konstitutsiyaviy qonun darajasida mustahkamlandi. Multikulturalizm Kanadada siyosiy, madaniy konsensus shakllanishiga xizmat qildi. Shu bilan birga, uni amalga tatbiq etishda muammoli vaziyatlar ham yuzaga keldi. Ushbu maqola Kanadada multikulturalizm konsepsiyasining tarixi va tadrijiga bag'ishlangan.

Аннотация

В 1970-х годах в Канаде начала реализовываться политика мультикультурализма с целью регулирования межэтнических отношений. Статус этой политической модели закреплен на уровне конституционного закона. Мультикультурализм способствовал формированию политического и культурного консенсуса в Канаде. Вместе с тем, при его реализации возникли и проблемные ситуации. В данной статье рассматривается история и эволюция концепции мультикультурализма в Канаде.

Abstract

In the 1970s, Canada began to implement a policy of multiculturalism with the aim of regulating interethnic relations. The status of this political model is enshrined in constitutional law. Multiculturalism contributed to the formation of a political and cultural consensus in Canada. At the same time, its implementation also gave rise to problematic situations. This article examines the history and evolution of the concept of multiculturalism in Canada.

Kalit so'zlar: etnik ixtiloflar, milliy konsensus, bikulturalizm, multikulturalizm, etnik ozchiliklar huquqlari, muhojirlar.

Ключевые слова: этнические конфликты, национальный консенсус, бикультурализм, мультикультурализм, права этнических меньшинств, иммигранты.

Key words: ethnic conflicts, national consensus, biculturalism, multiculturalism, rights of ethnic minorities, immigrants.

KIRISH

Dunyodagi aksar ixtiloflar, qurolli to'qnashuvlar etnik kelishmovchiliklar sabab ro'y bermoqda. Shunga ko'ra har qanday jamiyatda, ayniqsa, ko'pmillatli jamiyatlarda millatlararo totuvlikni ta'minlash, umummilli konsensusga erishish taqdirulamal ahamiyatga ega masala sanaladi. 450 dan ziyod etnik, madaniy guruhalr istiqomat qilayotgan Kanada davlatida ham milliy birlikni ta'minlash masalasi so'nggi o'n yilliklar mobaynida katta siyosat kun tartibidan tushmay kelmoqda.

Buyuk Britaniyaning Avstraliya, AQSH, Yangi Zelandiya kabi sobiq koloniyalari kabi Kanadada bir necha asr mobaynida assimiliyatsiya siyosati yuritilgan. 1867-yilda qabul qilingan Konstitutsiyada ham ikki dominant guruh – ingliz va fransuzlar madaniyati, tili va qadriyatlariga ustuvorlik berilgan. Shu asosda mamlakatda bikulturalizm tamoyili shakllangan. "Kanada faqat oqlar uchun" degan qarash hukm surgan sharoitda oqtanli bo'Imagan tubjoy aholi vakillari va osiyolik muhojirlar hatto sanoqqa qo'shilmagan, ularning haq-huquqlari poymol etilgan. Jumladan, 1910-yilda qabul qilingan "Immigratsiya to'g'risida"gi qonunda ham ingliz va fransuz identligiga mansub bo'Imagan etnik guruhlarning fuqarovi yuquqlari cheklangan edi.

Ikkinci jahon urushidan keyin dunyoning boshqa davlatlari kabi Kanadada ham millatlararo munosabatlар modeli tanqidiy tarzda qayta ko'rib chiqildi. 1960-yillarda Kvebek provinsiyasida fransuzzabon aholi orasida ayirmachilik kayfiyatining kuchayishi etnik siyosatni isloh qilish zaruratini yanada oshirdi. Shu tariqa Kanada mutafakkirlari millatlararo ziddiyatlarni hal etish yo'li sifatida multikulturalizm siyosatini taklif etdi. 1970-yillardan boshlab amalga tatbiq etilgan ushbu siyosiy konsepsiya Kanadada so'nggi asrlar mobaynida shakllangan ikki madaniyatlichkeitka, "Kanada faqat

SIYOSAT

oqlar uchun" doktrinasiga barham berib, madaniy plyuralizmga yo'l ochdi. 1960-yillar boshiga qadar mamlakat aholisining to'rtdan uch qismini AQSH yoki Yevropa vakillari tashkil etgan bo'lsa, 1990-yillarga kelib Osiyo, Markaziy Amerika va Karib havzasi davlatlari vakillari ulushi sezilarli darajada ortdi.

Hozirga kelib, Kanadaning qariyb 41 million aholisi chorak qismini keyingi yarim asrda ko'chib kelgan muhojirlar tashkil etadi. Har yili 450-500 ming muhojirni qabul qilayotgan Kanada multikulturalizm siyosati orqali millatlararo robitalarni oqilona yo'lga qo'yish mumkinligini isbotladi. Mazkur mamlakatda multikulturalizm shunchaki siyosiy ta'limot emas, falsafiy qadriyat darajasiga ko'tarildi. "Har to'ksida bir ayb" deganlaridek, Kanadada multikulturalizmni amalga tatbiq etish borasida ziddiyatlar yuzaga kelganini ham rad etib bo'lmaydi. Ammo milliy birlikka erishish borasida Kanada tajribasi unikal xususiyatga ega ekanini ta'kidlash joiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Etnik va madaniy plyuralizm g'oyasiga tayangan multikulturalizm siyosiy modeli muayyan bir davlatda yashayotgan turli millat va madaniyat mansublari o'tasida totuvlikka erishish, etnik ozchiliklarning o'zligiga daxl etmagan holda, ularning jamiyatga integratsiyasini ta'minlashni ko'zda tutadi. Ushbu siyosiy ta'limot etnik ozchiliklar dominant mavqedagi siyosiy madaniyat muhitida o'z madaniyati, tili, qadriyatları, qisqasi, o'zligini saqlab qolishga haqli degan qarashni ilgari suradi.

Kanada – multikulturalizm siyosati konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan dunyodagi yagona davlatdir. Ushbu konsepsiya asoschilaridan biri Uill Kimlika fikricha, har bir etnik jamoa betakror til, qadriyat va an'analarga ega. Binobarin, davlat ularni saqlab qolishga mas'uldir. Ayni choqda, mamlakatda kam sonli millatlar uchun bag'rikenglik muhiti yaratilishi etarli emas. Davlat turli etnik guruhalr vakillarining ona tilida ta'lif olishi, o'zligini saqlab qolishi uchun zarur shart-sharoit yaratishi, kam sonli elatlar vakillariga qonunchilik va ijroiya idoralarida kvota ajratishi lozim [1, B. 16].

Kanadalik faylasuf Charlz Teylor esa multikulturalizm "tan olish siyosati" deb ataydi [2, B. 25-73]. Olimning talqinida tan olish siyosati davlatning etnik ozchiliklar tili, madaniyati va o'zligini e'tirof etishi, hurmat ko'rsatishi va ularni saqlab qolish uchun kerakli shart-sharoit yaratishini anglatadi.

Ko'plab tadqiqotlarda Kanadada amalga tatbiq etilgan ko'pmadaniyatilik siyosati boshqa mamlakatlar uchun namuna bo'lishi qayd etiladi. Jumladan, rossiyalik olim Anna Veretevskaya Kanadadagi multikulturalizm siyosatini muvaffaqiyat etaloni deb qabul qilish mumkin, ushbu ta'limot maqsadlar va tamoyillar uyg'unligida izchil hayotga tatbiq etilgan deb hisoblaydi [3, B. 86].

Shu bilan birga, multikulturalizm Kanada jamiyatini parokanda qilib, davlat yaxlitligiga tahdid soladi, degan qarashdagi olimlar ham bor. Tadqiqotchi Nil Bisundat multikulturalizm Kanadada asrlar mobaynida shakllangan ingliz va fransuz madaniyatiga asoslangan ikki madaniyatlikka barham bergenidan babs etadi [4, B. 252]. Uning fikricha, turli madaniyatlarga haddan ziyod bag'rikeng munosabatda bo'lish oqibatida Kanada jamiyatida umummiliy madaniyatdan ajralib qolgan etnik anklavlar hosil bo'lgan, birlik va birdamlik falsafasi multikulturalizm falsafasi yo'lida qurban etildi.

Tadqiqotchi Jek Granashteyn esa jamiyatda etnik ozchiliklar qadriyatları ustuvor ahamiyat kasb etayotgani, ko'p sonli aholi hatto Kanada tarixidan ham begonalashib ketgani haqida yozadi [5, B. 156]. Muallif buni "Kanada tarixining o'limi" deb ataydi.

Kanadaning separatistik kayfiyat hukmon bo'lgan Kvebek provinsiyasida boshqa hududlarga qaraganda multikulturalizm siyosatini rad etuvchilar soni ko'proq ekanini kuzatish mumkin. Kvebek multikulturalizm fransuz madaniy peshqadamligiga soya soladi deb biladi [6, B. 217].

Fargli yondashuv, ziddiyat va bahslar mavjud ekaniga qaramay, multikulturalizm siyosati Kanadaning o'ziga xos umummiliy qadriyati bo'lib qolmoqda. Mamlakat bosh vaziri Justin Tryudo 2017-yilda bergen bayonotida bunday degan edi: "Multikulturalizm Kanadaning o'ziga xosligi va merosi asosini tashkil etadi. Kanadaliklar bizning farqli jihatlarimiz bizni kuchli qiladi deb hisoblaydi. Kanadaga xos kuchli multikulturalizm an'analari jamiyatimizga yangi ufqlarni ochish, eski muammolarga yangicha javob topish imkonini berdi" [7].

Ushbu maqolada Kanadada multikulturalizmning tadrijini ochib berishda tizimli va qiyosiy tahlilga tayanildi. Shuningdek, umumlashtirish va statistik usullarga murojaat etildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

1960-yillarda Kvebek provinsiyasida Kanadan dan mustaqil bo'lib ajralish chiqish harakati kuchaydi. Haq-huquqlari buzilgani, kamsitilganini da'vo qilgan kvebekliklar fransuz tili va madaniyatini yanada izchil himoya qilish, siyosiy va iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda kattaroq

vakolatlar talab qildi. Iqtisodiy jihatdan ancha ortda qolgan Kvebek provinsiyasining mustaqillik kurashi “tinch inqilob” deb ataldi. 1963 – 1969-yillarda faoliyat yuritgan Ikkitillilik va bikulturalizm bo‘yicha qirolik komissiyasi parokandalikka yuz tutayotgan mamlakatni yaxlit holda saqlab qolishi, fransuz va ingliz jamoasini o‘zaro yarashtirishi lozim edi. Kvebekliklar talabi va ushbu komissiya xulosasi asosida 1969-yilda fransuz tili ingliz tili kabi teng maqomga ega davlat tiliga aylandi. Shu vaqtga qadar Kanadada assimilyatsiya siyosati amal qilib kelgan. Ya’ni etnik ozchilik vakillari ingliz yoki fransuz tilini o‘rganishi va mazkur dominant madaniyatlarga qo’shilib-qorishib ketishi talab qilingan. Tadqiqotlarga qaraganda, hatto 1960-yillarda ham ingliz va fransuz bo‘lmagan aholi vakillari, xususan, osiyoliklar diskriminatsiyaga uchragan, mehnatga haq to‘lash, davlat idoralarida ishslash borasida teng imkoniyatlar taqdim etilmagan [8, B. 35].

Kvebekdagi “tinch inqilob” ortidan Kanadada yashayotgan boshqa millat va elat vakillarining milliy-madaniy qadriyatlarini saqlash masalasi ham kun tartibiga chiqdi. Ikkitillilik va bikulturalizm bo‘yicha qirolik komissiyasi etnik ozchilik millatlarga nisbatan assimilyatsiya emas, balki integratsiya siyosatini yuritishni tavsiya etdi.

Kanada ilmiy va siyosiy doiralarida jamiyatdagi tengsizlik, ayirmachilik, etnik ozchiliklar huquqlarining poymol etilishi kabi muammolarga maqbul echim sifatida multikulturalizm siyosati taklif etildi. Shu tariqa Kanada bosh vaziri Pyer Tryudo boshchiligidagi hukumat 1971-yil oktyabrdagi multikulturalizmni federal siyosat deb e’lon qildi. “Bitta xalq, ikki til va ko’plab elatlar va madaniyatlar” g’oyasi ilgari surildi. Kanadada uzoq vaqt davomida hukm surib kelgan bikulturalizm (ikkimadaniyatilik) multikulturalizmga (ko’madaniyatilik) aylandi.

Multikulturalizm siyosiy modelini amalga tatbiq etish va keng aholi hamda davlat idoralari xodimlari orasida targ‘ib qilishda 1968 – 1979 va 1980 – 1984-yillarda Kanada bosh vaziri lavozimida faoliyat yuritgan Pyer Tryudoning xizmati katta bo‘lgan. P.Tryudo Kanadada etnik ozchilik vakillariga nisbatan assimilyatsiya siyosatini olib borishni nomaqbul deb hisoblagan. “Kanada kabi katta mamlakat uchun birxillik nomaqbul va imkonsizdir. Barcha kanadaliklardan yakrang bo‘lishni talab etishga qaratilgan siyosat halokatlidir. Ideal kanadalik yoki yagona model tushunchasi yo‘q. “Umumkanadalik” bola yoki qiz konsepsiyasidan ham absurdroq g’oya bo‘lishi mumkinmi? Yakranglikni targ‘ib etuvchi jamiyat toqatsizlik va nafratga doyalik qiladi. Butun dunyo, xususan, biz Kanadada birxillik konsepsiyasini emas, balki xayriohlik, muhabbat va o‘zaro tushunish kabi insoniy qadriyatlarni e’zozlashimiz kerak”, degan edi liberal fikrli siyosatchi [9, B. 16-20].

Qayd etish joizki, Kanadada multikulturalizm g’oyasi 1960-yillardagi beqarorlik ortidan daf’atan paydo bo‘lib qolmadidi. Bag’rikenglik ta’limoti, aslida, yillar mobaynida ijtimoiy ehtiyoj, siyosiy zarurat asosida etilib kelgan edi. 1938-yilda kanadalik yozuvchi Jon Myurrey Gibbon madaniy mozaika g’oyasini ilgari surgan edi [10]. O’sha vaqtarda AQSHda keng targ‘ib-tashviq etilgan “erituvchi qozon” (melting pot) modeliga muqqobil sifatida taklif etilgan mozaika modeli Kanadada yashovchi turli millat va elatlar o‘z tili, madaniyati va qadriyatlarini saqlab qolgan holda, yagona Kanada madaniyatini shakllantirishni nazarda tutgandi.

Kanadada multikulturalizmning shakllanishini uchta davrga bo‘lish mumkin: ushbu ta’limotning tug‘ilishi (1971-yilgacha), shakllanishi (1971 – 1981-yillar) va institutsiyalashuvi (1982-yildan hozirga qadar) [11, B. 3-4].

Albatta, ma’lum mafkura, ta’limotni amalga tatbiq etish, avvalo, uning institutsional va huquqiy asoslarini shakllantirishni talab etadi. 1972-yilda Kanadada multikulturalizm masalalariga mas’ul vazir lavozimi ta’sis etildi. 1973-yilda esa nodavlat shaklda etnomadaniy kengash tuzildi. 1982-yilda qabul qilingan Huquqlar va erkinliklar xartiyasida mamlakatdagi turli millat va elat vakillarining madaniy merosini saqlash muhimligi belgilandi. 1988-yil 21-iyulda dunyoda ilk bor Kanadada “Multikulturalizm to‘g’risida” qonun qabul qilindi. Ushbu hujjatda ko’pmadaniyatilik Kanada jamiyatining fundamental xususiyati, hukumat faoliyati mezoni o’laroq mustahkamlandi. Qonunga ko‘ra, federal hukumatga siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jabhalarda irqi, milliy, ijtimoiy mansubligidan qat’i nazar, barcha fuqarolarga teng imkoniyat va sharoit yaratish majburiyati yuklandi [12]. Ushbu qonunda Kanada jamiyatining madaniy va irqiy xilma-xilligini aks ettirish, jamiyatning barcha a’zolari madaniy merosini saqlash, takomilashtirish va baham ko‘rish erkinligini tan olish, shuningdek, multikulturalizm Kanada tarixiy-madaniy merosi va o‘ziga xosligining asosiy xususiyati ekanini keng targ‘ib qilish vazifalari belgilandi.

Shu tariqa Kanadadagi muhojirlar va etnik ozchiliklar iqtisodiy, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi uchun to‘silqar olib tashlana boshladi. Ishga, o‘qishga qabul qilishda irqchilik, ayirmachilikka yo‘l qo‘ylmasligi uchun kerakli choralar ko‘rildi. Immigratsiya qonunchiligi liberalallashtirilishi bilan

SIYOSAT

Yevropadan boshqa mintaqalar aholisiga ham Kanadada doimiy yashash uchun ko'chib kelish imkoni tug'ildi.

Siyosatshunos Uill Kimlika muayyan mamlakatda multikulturalizm siyosati holatini baholash uchun quyidagi sakkiz banddan iborat mezonlarni taklif etgan: 1) ushbu siyosat konstitutsiya va qonun darajasida, mintaqaviy va umummiliy miqyosda e'tirof etilishi; 2) maktab dasturiga kiritilishi; 3) OAVda etnik ozchiliklar manfaatlari aks etishi; 4) kiyinish erkinligi; 5) ikkifuqarolilik imkoniyati; 6) etnik ozchiliklar madaniy faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy ko'mak berilishi; 7) etnik ozchiliklar ona tilida ta'lif imkoni ega bo'lishi; 8) himoyaga muhtoj muhojirlarga boshqa usullarda ko'mak ko'rsatish [13, B. 97-112].

Ushbu mezonlarga ko'ra tahlil etilsa, Kanada multikulturalizm siyosati borasida muvaffaqiyatsizlikka uchragan Germaniya, Fransiya kabi G'arbiy Yevropa davlatlaridan farqli ravishda bu borada ijobji ko'rsatkichlarni qayd etganini ko'rish mumkin.

Kanada hukumati mamlakatdagi etnik ozchilik vakillari rasmiy tillardan (ingliz, fransuz) birini o'rganishi uchun shart-sharoit yaratdi. Ayni choqda, turli etnik guruhlarga o'z madaniy merosini saqlab qolishi uchun moddiy va ma'nnaviy ko'mak ko'rsatildi.

1991-yilda qabul qilingan teleradio faoliyatiga doir qonunda esa teleradiokanallar mamlakatdagi madaniy turfa xillikni aks ettirishi lozimligi belgilangan. Kanada radio, televideniya va telekommunikatsiya komissiyasi ushbu qonun ijrosiga mas'ul idora bo'lib, teleradiokanallarga qo'yilgan litsenziya talablari orasida dasturlarining muayyan foizi etnik ozchilik haqida bo'lishi majburiyati ham bor.

Ayni paytda Xilma-xillik, inklyuzivlik va imkoniyat cheklangan fuqarolari ishlari bo'yicha vazirlik federal miqyosda multikulturalizm siyosatiga mas'ul sanaladi. Bundan tashqari, Multikulturalizm, inklyuzivlik va irqchilikka qarshi kurash bo'yicha mas'ul mansabdolarning federal, hududiy va mintaqaviy tarmog'i (FPTORMIA) shakllantirilgan. Provinsiyalar hukumatlari ham multikulturalizmni u yoki bu shaklda amalga tatbiq etadi. Jumladan, olti provinsiya (Britaniya Kolumbiyası, Alberta, Saskachevan, Manitoba, Kvebek va Yangi Shotlandiya) multikulturalizm haqida qonun qabul qilgan. Masalan, Ontario provinsiyasida Fuqarolik va immigratsiya vazirligi, Yangi Shotlandiyada esa hukumat huzuridagi qo'mita va maslahat kengashi inklyuzivlik, madaniyatlar va konfessiyalararo totuvlikka mas'ul sanaladi. Zotan, bosh vazir Pyer Tryudo ilgari surgan g'oyaga ko'ra, provinsiyalar hukumati hududiy jamoalar va madaniy hamjamiatlar manfaatini himoya qilishi, markaziy hukumat esa madaniy yoki hududiy mansubligidan qat'i nazar barcha fuqarolar haq-huquqlarini muhofaza etishi lozim edi [14, B. 48].

So'nggi yillarda Kanada aholisi orasida Yevropadan boshqa mintaqalar vakillari ulushi ortib bormoqda. Kanada statistika idorasi 2021-yilda 450 dan ziyod etnik yoki madaniy guruh vakillarini ro'yxatga olgan [15]. 2024-yilda mamlakat nufusi 41 million kishidan ortgan. Aholining etnik mansublikka ko'ra taqsimoti quyidagicha: oqtanlilar (69,8%), Janubiy Osiyo vakillari (7,1%), tubjoy aholi (5%), xitoyliklar (4,7%), qoratanlilar (4,3%), filippinliklar (2,6%), arablar (1,9%), Lotin Amerikasi millatlari (1,6%), Janubi-Sharqiy Osiyo millatlari (1,1%), G'arbiy Osiyo (1%), koreyslar (0,6%), yaponlar (0,3%) va boshqalar (3,2%).

2001 – 2021-yillar mobaynida Kanada aholisi tarkibida muhojirlarning o'sish ko'rsatkichi

Millatlar	2001	2006	2011	2016	2021
Janubiy Osiyo millatlari	917000	1263000	1567000	1925000	2571000
Xitoyliklar	1029000	1217000	1325000	1577000	1716000
Qoratanlilar	662000	784000	946000	1199000	1548000
Filippinliklar	309000	411000	619000	780000	957000
Arablar	195000	266000	381000	523000	694000
Lotin Amerikasi millatlari	217000	304000	381000	447000	580000
Janubi-Sharqiy Osiyo millatlari	199000	240000	312000	313000	390000
G'arbiy Osiyo millatlari	109000	157000	207000	264000	360000
Koreyslar	101000	142000	161000	189000	218000
Yaponlar	73000	81000	87000	93000	99000

Jadval Kanada milliy statistika agentligi (Statistics Canada) ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jamiyatning turli jabhalariga kirib borgan multikulturalizm modeli nafaqat haq-huquqlari buzilgan tubjoy aholi vakillari, muhojirlar hayotiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Olima Irene Blumrad Boston (AQSH) va Toronto (Kanada) shaharlarda yashagan vietnamlik muhojirlarning jamiyatga integratsiya jarayoni, o'z o'mnini topishga urinishlarini qiyosan o'rgangan. Tadqiqot natijasiga ko'ra, bir xil vaqt va imkonga ega bo'lgan vietnamliklar Bostonga qaraganda Torontoda ko'proq yutuqlarga erishgan. I. Blumrad buni Kanadaga xos multikulturalizm sharofati deb baholagan [16].

Darhaqiqat, muhojirlarga munosib shart-sharoit yaratilishi, ularning ijtimoiy pillapoyalardan dominant mavqedagi millatlar kabi ko'tarila olishi davlatning etnik siyosatini belgilovchi mezonlardan sanaladi. Tahlillarga qaraganda, 89 foiz kanadaliklar chet elda tug'ilgan kanadaliklar huddi Kanadada tug'ilganlar kabi risoladagidek fuqaro bo'la oladi deb hisoblaydi [17, B. 50]. Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda etnik ozchiliklar ulushi ham ortmoqda. Britaniya Kolumbiyasi provinsiyasi sog'liqni saqlash tizimining 26,3 foiz, Alberta provinsiyasining 21,8 foiz va Ontario provinsiyasining 24,2 foiz ishchi-xodimlari etnik ozchilik vakillari ekani ham buni tasdiqlaydi.

Kanadaning yaxlit davlatchiligi uchun katta tahdid tug'dirgan Kvebekdagi ayirmachilik 1980-yillarda yana kuchaydi. Ushbu harakat tarafдорлари mustaqillik uchun referendum o'tkazish tashabbusini ham ilgari surdi. 1990-yillar o'talariga kelib, separatistik harakat ommaviy qo'llab-quvvatlovdan mahrum bo'ldi. Zotan, Kvebek aholisining iqtisodiy ahvoli ancha yaxshilangan, fuqarolarning siyosiy faolligi ortgan, provinsiyaga berilgan madaniy avtonomiya ham kuchaygan edi. Albatta, Kvebek separatizmi ildizi bilan yo'q bo'lib ketmadi. Ammo ushbu otashin harakatning birmuncha "sovishi", kuchsizlanishida multikulturalizm siyosatining ham ta'siri katta bo'ldi deyish mumkin.

So'nggi vaqtarda dunyo miqyosida islomofobiya kuchaydi. Bu hol muqaddas islom diniga nisbatan tuhmat kampaniyalari yoki yanglish stereotiplarning keng tarqalishiga sabab bo'limoqda. Kanada federal hukumati 2023-yil yanvar oyida Islomofobiya qarshi kurash bo'yicha maxsus vakil lavozimini joriy qildi. Federal hukumat boshqa millat vakillariga nisbatan o'tmishda sodir etilgan adolatsizliklarni ham xato ekanini tan olib kelmoqda. Masalan, 2016-yilda bosh vazir Justin Trudeau bir asr avval ro'y bergan "Komagata Maru" hodisasi uchun rasman kechirim so'radi. Gap shundaki, 1914-yilda 376 yo'lovchisi bor yapon kemasi Vankuverga kelgan, ammo immigratsion cheklolvar sabab musulmonlar, hinduviyalar va sikhlardan iborat yo'lovchilar Kanada hududiga kiritilmagan edi. J.Trudeau o'tmishdagi xato uchun uzr so'rarkan, yana bir karra multikulturalizm siyosati muhimligini ta'kidlagan [18].

XULOSA

G'arbiy Yevropa mamlakatlarda u qadar muvaffaqiyat qozonmagan multikulturalizm siyosati Kanadada ijobjiy qarshilangani va jamiyatda siyosiy, madaniy konsensus shakllanishiga xizmat qilganini kuzatish mumkin. Bunga esa siyosatdonlar ushbu ta'limotga shunchaki populizm vositasi deb emas, teran ildizga ega qadriyat deb qaragani bosh omil bo'ldi. Qolaversa, ushbu g'oyani amalga tatbiq etish uchun mustahkam qonuniy poydevor yaratildi va institutsional asoslar shakllantirildi. Albatta, Kanadada millatlararo munosabatlarda muammolar hali talaygina. Masalan, 2021-yilda nafratga asoslangan, ma'lum din, irq va etnik ozchiliklara qaratilgan jinoyatlar 2020-yilga qaraganda 27 foizga ortgan [19]. Tubjoy aholi – hindular va inuitlar orasida qashshoqlik va ishsizlik hali ham yuqori darajada bo'lib qolmoqda. Jamiyatda "Coalition Avenir Quebec" (CAQ) kabi multikulturalizmga muxolif bo'lgan, o'ta o'ng qanotga mansub siyosiy partiylar ham mavjud.

Kanada davlati chinakam milliy konsensusga erishmog'i uchun diniy va milliy motivlarga asoslangan jinoyatlarga qarshi keskin choralar ko'rishi, iqtisodiy tabaqalanishning oldini olishi, ijroiya va qonunchilik bo'g'inida etnik ozchiliklar vakillari ishtiropi yanada oshishini ta'minlashi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kymlicka W. Multicultural Odysseys. Navigating the New International Politics of Diversity. – New York, Oxford University Press, 2009.
2. Taylor Ch. The Politics of Recognition. Multiculturalism. Examining the Politics of Recognition. – Princeton (N.J.), 1994.
3. Веретевская А. Мультикультурализм, которого не было: анализ европейских практик политической интеграции этнокультурных меньшинств. – Москва, МГИМО-Университет, 2018.
4. Bissoondath N. Selling Illusions: The Cult Of Multiculturalism In Canada. – Penguin Canada, 2002.
5. Granatstein J. Who Killed Canadian History. – Toronto, 2007.

SIYOSAT

6. Кадыралиева А., Жолдубаева А., Муханбет А. Канада. Уроки мультикультурализма. // Вестник КазНУ. Серия философия. Серия культурология. Серия политология. №2 (51). 2015.
7. <https://pm.gc.ca/eng/news/2017/06/27/statement-prime-minister-canadian-multiculturalism-day>
8. Galabuzi G. Canada's Economic Apartheid: The Social Exclusion of Racialized Groups in the New Century. – Canadian Scholars' Press. 2006.
9. Trudeau P. The Essential Trudeau. – Toronto, McClelland & Stewart, 1998.
10. Gibbon J. Canadian Mosaic: The Making of a Northern Nation. – Toronto, McClelland & Stewart, 1938.
11. Brosseau L., Dewing M. Canadian Multiculturalism. – Ottawa, The Library of the Canadian Parliament. 2009.
12. Canadian Multiculturalism Act. <https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/c-18.7/page-1.html>
13. Kymlicka W. The Rise and Fall of Multiculturalism. // International Social Science Journal, November, 2010.
14. The Task Force on Canadian Unity – A future together: observations and recommendations. – Ottawa-Ontario, 1979.
15. The Canadian census: A rich portrait of the country's religious and ethnocultural diversity. <https://www150.statcan.gc.ca/n1/daily-quotidien/221026/dq221026b-eng.htm>
16. Bloemraad I. Becoming a citizen: incorporating immigrants and refugees in the United States and Canada. – Berkley, University of California Press. 2006.
17. Andrew Griffith. Multiculturalism In Canada: Evidence and Anecdote. – Anar Press, 2015.
18. Canada apologises for turning away migrant ship in 1914. // BBC, 18 May, 2016. <https://www.bbc.com/news/world-us-canada-36326178>
19. Annual Report on the Operation of the Canadian Multiculturalism Act 2022-2023. <https://www.canada.ca/en/canadian-heritage/corporate/publications/plans-reports/annual-report-canadian-multiculturalism-act-2022-2023.html>.